

## ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH SOHASIDA PROKURATURA ORGANLARINING DAVLAT VA JAMIYAT INSTITUTLARI BILAN O'ZARO HAMKORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

**Arziqulov Adham Alimardon o'g'li**

*O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistratura  
tinglovchisi  
[aaarzikulov@mail.ru](mailto:aaarzikulov@mail.ru)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasida prokuror nazoratini ta'minlashning huquqiy asoslari va bu borada prokuratura organlarining vazifalari, O'zbekistonda atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilishning bugungi holati va bu sohada yuzaga kelayotgan muammolar va tahdidlar, shuningdek, ushbu sohada qonuniylikni ta'minlashda prokuratura organlarining boshqa davlat va jamiyat institutlari bilan o'zaro hamkorligi va uni takomillashtirish masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Prokuror nazorati, ixtisoslashtirilgan prokuratura, tabiatni muhofaza qilish, ekologik inqiroz, o'zaro hamkorlik, jamoatchilik kengashlari.

**Аннотация:** В данной статье освещаются правовые основы обеспечения прокурорского надзора в области охраны окружающей природной среды и задачи органов прокуратуры в этой области, современное состояние охраны окружающей природной среды в Узбекистане, проблемы и угрозы, возникающие в этой области. Обсуждались также вопросы совершенствования взаимодействия органов прокуратуры с другими государственными и общественными институтами в обеспечении законности в данной сфере.

**Ключевые слова:** прокурорский надзор, специализированная прокуратура, охрана природы, экологический кризис, взаимодействие, общественные советы.

**Annotation:** this article covers the legal framework for ensuring prosecutor's supervision in the field of environmental protection and the tasks of the prosecutor's office in this regard, the current state of environmental protection in Uzbekistan and the problems and threats facing this area. The issues of improving the interaction of the prosecutor's office with other state and community institutions in ensuring legitimacy in this area have also been discussed.

**Keywords:** prosecutor's supervision, specialized prosecutor's office, nature protection, environmental crisis, mutual cooperation, community councils.

### KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatimizda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, ekologik vaziyatni yaxshilash, chiqindilarning insonlar sog'lig'iga zararli ta'sirini oldini olish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holat sifatini oshirish

uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasida tabiatni huquqiy himoya qilish vazifasi barcha darajadagi rahbarlar tomonidan eng muhim, strategik vazifalardan biri sifatida baholanmoqda va oqilona milliy ustuvorlik darajasiga ko'tarildi. Uni hal etish barcha davlat organlari va jamoat tashkilotlarining tabiat dunyosini jinoiy tajovuzlardan himoya qilishni ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakatlarini jamlashni talab etadi. Bu ko'p qirrali faoliyat ilmiy asoslangan muvofiqlashtirilgan o'zaro hamkorlik doirasida amalga oshirilishi tabiiydir.

O'zbekistondagi umumiy ekologik vaziyat tabiiy muhitning sezilarli darajada buzilishi bilan tavsiflanadi, bu tabiiy resurslarning to'liq yoki qisman yo'qolishiga, shu jumladan, hayvonot dunyosi, o'simlik dunyosi turlarining miqdoriy tarkibining pasayishiga olib keldi. Xususan, daraxtlar va butalarning kesilishiga e'lon qilingan moratoriy davrida 44 mingga yaqin, shundan 9,5 mingga yaqin qimmatbaho daraxtlar noqonuniy kesilishi natijasida tabiatga 36 milliard so'mlik zarar yetkazilgan. 2022-yilda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarining bajarilishi bo'yicha o'tkazilgan tekshiruvlar ushbu sohada muammolar ko'pligini ko'rsatmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunchilik holati qoniqarsizligicha qolmoqda.

Xususan, o'tgan 2022-yilda prokuratura organlari tomonidan ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida 385 ta tekshirishlar o'tkazilib, 2566 ta turli qonun buzilishi holatlari aniqlangan.

Tekshirishlar natijasiga ko'ra, 537 ta noqonuniy hujjatlarga protest keltirilgan, qonun buzilishi holatlarini bartaraf etish yuzasidan 404 ta taqdimnomalar kiritilgan, 456 nafar mansabdor shaxslar intizomiy, 951 nafari ma'muriy javobgarlikka tortilgan, 220,1 mln so'mlik zararlarning ixtiyoriy qoplanishi ta'minlangan, 368 nafar mansabdor shaxslar qonunlarni buzmaslik haqida ogohlantirilgan. Shuningdek, qo'pol qonun buzilish holatlari yuzasidan 60 ta jinoyat ishlari qo'zg'atilgan hamda 500 nafar shaxslarning buzilgan huquqlari tiklangan.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Ekologiya sohasida prokurorlar tomonidan aniqlangan qonunbuzarliklarga misollar ko'p. Shubhasiz, ekologiyaning o'tkir muammosi bizning davrimizning eng muhim muammolaridan biridir. Hatto davlat hokimiyati tizimidan uzoqda bo'lgan odamlar ham huquqning ushbu tarmog'idagi muammolarni endi e'tiborsiz qoldira olmaydilar. Ta'kidlash joizki, atrof-tabiiy muhit to'g'risidagi qonun hujjatlarini amalga oshirishning ko'plab muammolari ko'pincha prokuratura aralashuvidan keyin hal qilinadi. Buni yuqoridagi misolimiz tasdiqlab turibdi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida prokuratura organlarining boshqa davlat organlari bilan o'zaro hamkorligi masalasini chuqurroq tahlil qiladigan

bo'lsak, ushbu hamkorlikni yo'lga qo'yiladigan davlat organlarining va boshqa tashkilotlarning huquqiy maqomi va vazifalaridan kelib chiqib tasniflash maqsadga muvofiq ko'rinadi.

O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunining 8-moddasida ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni qayta tiklash sohasidagi davlat boshqaruvi qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan [1].

Bizga ma'lumki, prokuror nazorati ichki va tashqi (idoralararo) o'zaro hamkorlik asosida amalga oshiriladi. Ichki hamkorlik prokuraturaning tashkiliy faoliyati tizimida amalga oshiriladi. Tashqi idoralararo nazorat esa mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari, jamoat va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro munosabatdir. Bunday o'zaro munosabatning asosiy belgisi vazifalarning umumiyliigi hisoblanadi. Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi prokuratura organlarining idoralararo hamkorligi shartli ravishda quyidagi asosiy yo'nalishga bo'linishi mumkin:

1. vakillik (Qonunchilik) va davlat hokimiyatining ijro etuvchi organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari bilan o'zaro hamkorlik qilish;
2. nazorat organlari bilan o'zaro hamkorlik qilish;
3. sud organlari bilan o'zaro hamkorlik qilish;
4. ommaviy axborot vositalari, jamoat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o'zaro hamkorlik.

#### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Prokuratura va nazorat qiluvchi organlarning to'g'ri tashkil etilgan o'zaro hamkorligi prokurorlarga o'z faoliyatini maqsadli va samarali rejalashtirish imkonini beradi, bu esa fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzganlik uchun jazo muqarrarligini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi qonunida O'zbekiston prokuratura organlarining notijorat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorligini ifodalovchi norma mavjud emas [2]. bunday o'zaro munosabatlarning predmeti, vazifalarini belgilab beruvchi aniq qonun normalari mavjud emas, bu esa qonunda kamchiliklar mavjudligini ko'rsatadi. Amalda bunday hamkorlik masalalari O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2017-yil 24-noyabrdagi "Ijtimoiy-iqtisodiy qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 166-sonli buyrug'ining **8.4-bandida**, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash sohasida yo'l qo'yilgan qonun buzilishlarni aniqlash va ularni bartaraf etishda vakolatli idoralar va nodavlat notijorat

tashkilotlari tomonidan o'tkazilgan tekshirish materiallaridan foydalanish hamda **11.6-bandida**, esa sohadagi nazorat faoliyatini mahalliy ijro hokimiyati, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari bilan hamkorlikda tashkil etishga alohida e'tibor qaratish lozimligi ko'rsatilgan.

Bizning nazarimizda prokuratura organlari bilan boshqa davlat organlari va jamoatchilik institutlari o'rtasida hamkorlik sohadagi huquqbuzarliklarni aniqlash va ularcha chek qo'yish hamda ekologiya va atrof-muhit sohasida fuqarolarning huquqlari ro'yobga chiqarilishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, prokuraturaning fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorligining tegishli huquqiy asoslarini shakllantirish uchun ushbu qonunga o'zgartirish kiritish zaruratini yuzaga keltiradi. Xususan, "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunga "**davlat va jamiyat tashkilotlari bilan o'zaro munosabatlar**" tushunchasi kiritilishi, prokuratura organlari bilan davlat va jamiyat institutining boshqa institutlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik masalalarini ochib beradigan norma kiritilishi va o'zaro hamkorlikning predmeti, tamoyillari va vazifalarini belgilash taklif etiladi.

Prokuratura organlari faoliyatining asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, u nafaqat nazorat organlari, ularning mansabdor shaxslari tomonidan qonunlar ijrosi, ular tomonidan chiqarilgan huquqiy hujjatlarning qonuniyligiga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi, balki ular bilan turli shakllarda o'zaro munosabatlarni ham amalga oshiradi [3]. Shu bilan birga, prokuratura organlari va nazorat qiluvchi organlarning o'zaro hamkorligi obyektiv ravishda ushbu davlat tuzilmalarining imkoniyatlarini birlashtirish manfaatlaridan kelib chiqadi.

Prokuratura organlari va nazorat organlarining o'zaro hamkorligi muammosi haqida gapirganda shuni yodda tutish kerakki, nazorat qiluvchi organlar o'z funksiyalarining xususiyatiga ko'ra o'z nazorati ostidagi faoliyatni yaxshi biladi hamda keng tarmoqlangan tizimga ega hisoblanadi, shuningdek, sohada malakali mutaxassislariga va yetarli darajada texnik jihozlarga ega [4].

O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi qonunining 8-moddasida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini ta'minlash maqsadida tezkor-qidiruv faoliyatni, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshiradigan tegishli organlarning faoliyatini muvofiqlashtiradi [2].

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan organlar faoliyatini muvofiqlashtirish uchun prokuror muvofiqlashtiruvchi kengash chaqiradi, ishchi guruhlar tashkil etadi, zarur axborot, shu jumladan, statistika ma'lumotlarini talab qilib oladi, qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.03.2017-yildagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va



jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2833-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi to'g'risida Nizom" va ushbu komissiyaning tarkibi tasdiqlangan. Nizomga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi"ning yagona muvofiqlashtiruvchi organi hisoblanadi [5]. O'zbekiston Respublikasida ekologiya va atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasida maxsus davlat boshqaruvi organi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-yanvardagi 29-son qaroriga asosan "O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi to'g'risida Nizom" tasdiqlangan. Hozirgi paytda ushbu qo'mita O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.05.2023-yildagi "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-81-son farmoni bilan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligiga aylandi hamda qo'shimcha vazifa va funksiyalar yuklatildi [6].

So'nggi yillarda prokuratura organlarining nazorat organlari bilan o'zaro hamkorligi bo'yicha katta tajriba to'planganiga qaramay, uning mohiyati va prokuror nazorati nazariyasidagi o'ziga xos jihatlari haligacha to'liq ochib berilmagan. Shuni yodda tutish kerakki, nazorat qiluvchi organlar o'z funksiyalarining xususiyatiga ko'ra hududiy organlar tizimi bilan ta'minlangan, zarur texnik jihozlar va xodimlarga ega. Bu bizga nazorat qiluvchi organlarni huquqbuzarliklarni samarali aniqlash, ayrim hollarda esa ularni to'xtatish, huquqbuzarlarga ta'sir ko'rsatish uchun zarur choralarni ko'rish imkonini beruvchi tizim sifatida qarash imkonini beradi [7].

Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi prokuratura organlari va nazorat organlarining amaliy faoliyatida o'zaro hamkorlikning quyidagi shakllari keng tarqalgan:

1. ularning ish rejalarini muvofiqlashtirish;
2. o'zaro ma'lumot almashish;
3. atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlarining bajarilishini birgalikda yoki bir vaqtda tekshirish;
4. komissiyalar yig'ilishlarida va tezkor yig'ilishlarda birgalikda ishtirok etish;
5. profilaktika tadbirlarida birgalikda ishtirok etish;
6. atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida prokuratura organlari va

nazorat organlari xodimlarining malakasini birgalikdagi oshirish;

7. loyihalarni birgalikda tayyorlash (atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar) va o'zaro munosabatlarning boshqa shakllarini kiritishimiz mumkin.

Bundan xulosa qilish mumkinki, prokuratura organlarining atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi ixtisoslashtirilgan nazorat organlari bilan to'g'ri tashkil etilgan o'zaro hamkorligi prokurorlarga o'z faoliyatini maqsadli va samarali rejalashtirish imkonini beradi.

Bugungi kunda bir qator tadqiqotchilar "Hozirgi vaqtda prokuraturaning davlatning nazorat qilish funksiyasiga emas, balki huquqni qo'llashni amalga oshirishga yo'naltirilganligi funksiyasi tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda" deb ta'kidlamoqdalar [8]. O'zaro hamkorlik masalasiga kelsak, shuni ta'kidlash joizki, prokuratura organlari o'zlarining ijtimoiy maqsadi, huquqiy maqomi va davlat hokimiyati tizimidagi o'rniga ko'ra nafaqat muvofiqlashtirishni, balki ushbu o'zaro hamkorlikni tashkil etishni ham amalga oshiradilar va qoida tariqasida, unda yetakchi o'rinni egallaydi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar ekologik funksiyalarining mintaqa miqyosidagi ahamiyati hozirgi ekologik tang vaziyatda ekologik tizim holatini yomonlashuvini oldini olish, ekologiya qonunbuzarlarini aniqlash, jazolash, inson faoliyatining tabiatga salbiy ta'sirini kamaytirish, ekologiyani yaxshilash mavzusida targ'ibot-tashviqotlar olib borish, turli tadbirlar o'tkazishda ko'rinadi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning boshqa ekologik funksiyalari mavjud davlat organlaridan asosiy farqi majburlov kuchiga egaligi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Xususan, M. Usmonovning fikriga ko'ra ekologiya sohasida davlat boshqaruv organlarining huquqni muhofaza qilish faoliyati tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muhofaza qilish qoidalari buzilgan taqdirda aybdor shaxslarni jinoiy, ma'muriy va intizomiy javobgarlikka tortish masalasi huquqni muhofaza qilish organlarining ma'muriyati oldiga qo'yiladi [9].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 6-qismida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasi va ularga qarshi kurashish tizimini yangi darajaga ko'tarish maqsadida Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya va Davlat ekologiya qo'mitasining quyidagilarni nazarda tutuvchi "**Ekologik patrul**" ishlash tizimini joriy etishning belgilanishi atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida nazoratni kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida prokuratura organlarining o'zaro hamkorlikni olib boradigan subyektlar orasida atrof-muhitni muhofaza qilish bilan

shug'ullanuvchi jamoat nodavlat tashkilotlarining rolini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Prokurorlar o'z faoliyatida jamoatchilik bilan hamkorlikning o'z maqsad va vazifalariga javob beradigan, ham prokuratura tizimida shakllangan, ham boshqa davlat organlari tomonidan ishlab chiqilgan eng samarali shakllaridan foydalanishi zarur. Tadqiqotchilarning ta'kidlashlarcha, prokuratura organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning asosiy shakllari quyidagilardan iborat:

- 1) qo'shma kompleks dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- 2) qo'shma tadbirlarni o'tkazish;
- 3) axborot almashinuvi;
- 4) o'zaro maslahat, tashkiliy yordam;
- 5) o'zaro ta'sirning boshqa shakllari [10].

Jamoatchilik bilan samarali hamkorlikni ta'minlashda prokuror jamoat munosabatlarining turli sohalaridagi huquqbuzarliklar to'g'risida doimiy qo'shimcha ma'lumot manbasiga ega bo'lish va shunga mos ravishda huquq-tartibot holatiga tezkor ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, fuqarolik jamiyati institutlari - axborot tashuvchilar uchun prokuror tomonidan olingan ma'lumotlarning tekshirilganligi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda aniq faktlar bo'yicha prokuror tomonidan javob choralari ko'rilgani muhim ahamiyatga ega. Aynan ushbu chora-tadbirlar va javob natijalari haqida fuqarolik jamiyatining tegishli institutini teskari tartibda xabardor qilish maqsadga muvofiqdir. Tomonlar o'rtasida doimiy ravishda axborot almashinuvi jamoatchilik bilan hamkorlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Atrof-muhitni muhofaza qilishda prokuratura organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning yangi shakllaridan biri viloyatlar tabiatni muhofaza qilish prokuraturalari huzurida jamoatchilik ekologik kengashlarining tashkil etilishini keltirishimiz mumkin. Misol uchun, Rossiya Federatsiyasi Leningrad viloyatida 2013-yil 4-iyunda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan nazorat vakolatlarini samarali amalga oshirish maqsadida atrof-muhitni muhofaza qilish va atrof-muhit xavfsizligini ta'minlashning dolzarb masalalari muhokamasiga jamoatchilikni jalb etish, jamoat ekologik tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish va atrof-muhit xavfsizligini ta'minlashning dolzarb masalalari muhokamasiga jamoatchilikni jalb qilish maqsadida Leningrad tumanlararo ekologiya prokuraturasi qoshida jamoatchilik kengashi tuzildi hamda uning ishtirokchilari sifatida Butunrossiya "Yashil front" jamoat tashkilotining mintaqaviy bo'limi, shuningdek, Leningrad viloyati tabiatni muhofaza qilish jamiyati kirdi [11].

Jamoatchilik kengashi tabiatni muhofaza qilish prokuraturasi faoliyatining belgilangan sohasiga oid masalalar bo'yicha faoliyatning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqishda jamoatchilik va kasb-hunar birlashmalari vakillarining ishtirokini, ochiqlik va oshkoralik tamoyilini amalga oshirish asosida faoliyat yuritadi. Jamoatchilik kengashining ish mexanizmi Kengash a'zolari tomonidan muntazam yig'ilishlarda birgalikda qabul qilingan qarorlarning bajarilishidan iborat. Jamoatchilik kengashi tomonidan ko'rib chiqilgan masalalar bo'yicha zarur axborot va fikr-mulohazalarni taqdim etish uchun zarur hollarda davlat va ijro hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari, ilmiy muassasalar vakillari, ekspertlar va mutaxassislarning majlislarga taklif etilishi joriy etilgan. Bundan tashqari, majlislarda kengash taklifiga binoan ommaviy axborot vositalari vakillari ham ishtirok etishlari mumkin. Bundan tashqari, 2013-yil 10-oktabrda Novosibirsk tumanlararo ekologiya prokuraturasi qoshida Jamoatchilik ekologik kengashi tashkil etildi [12]. Prokuratura nazorati ostida tashkil etilgan shunga o'xshash jamoat kengashlari Rossiya Federatsiyasining boshqa bir qator mintaqalarida ham mavjud bo'lib, ularning faoliyati atrof-tabiiy muhitni huquqiy himoya qilishni ta'minlashga qaratilgan.

To'plangan prokuratura amaliyoti materiallari uni muvaffaqiyatli amalga oshirishning umumiy rejasini ko'rsatishga imkon beradi. Avvalo, atrof-muhitni muhofaza qilishning umumiy muammolarini hal etishda tabiatni muhofaza qiluvchi tashkilotlar bilan hamkorlik teng huquqlilik, o'zaro ishonch, hurmat va bir-birining manfaatlarini hisobga olish tamoyillariga asoslanishi kerak.

Yuqorida ko'rsatilgandek, qayd etilgan tuzilmalarning o'zaro ta'sirining shakllari va usullari doimiy ravishda takomillashtirilmoqda. Prokuratura organlari va atrof-muhitni muhofaza qilish tashkilotlari o'rtasida uzoq vaqtdan beri hamkorlikdagi ishning dolzarbligi va ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini o'zaro tushunish asosida samarali muloqot olib borishga yordam beradi va ularning atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

### **XULOSA**

Yuqorida muhokama qilinganlardan kelib chiqib quyidagilarni xulosa o'rnida quyidagilarni qays etish o'rinli bo'ladi:

**Birinchidan,** O'zbekiston Respublikasida atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratini amalga oshirishda prokuratura organlarining boshqa davlat organlari va jamoat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorligini rivojlantirish orqali ushbu sohada prokuror nazorati samaradorligini oshirish mumkin.

**Ikkinchidan,** O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuniga "**davlat va jamiyat tashkilotlari bilan o'zaro munosabatlar**" tushunchasi



kiritilishi, prokuratura organlari bilan davlat va jamiyat institutining boshqa institutlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik masalalarini ochib beradigan norma kiritilishi va o'zaro hamkorlikning predmeti, tamoyillari va vazifalarini belgilash maqsadga muvofiq ko'rinadi.

**Uchinchidan,** O'zbekiston Respublikasida atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi muammolarni hal qilish uchun O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi darajasida hamda viloyatlar hamda tumanlar prokuraturalari qoshida Jamoatchilik ekologik kengashlarini tashkil etish maqsadga muvofiq ko'rinadi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.12.1992 y, 754-XII-son.
2. O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida" gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.08.2001 y, 257-II-son.
3. Винокуров А.Ю. Взаимодействие органов прокуратуры Российской Федерации и органов охраны окружающей среды Министерства природных ресурсов Российской Федерации по предупреждению экологических правонарушений. М., 2000.
4. Джамбулатов С. И. Принципы взаимодействия прокуратуры с контролирующими органами. Бизнес в законе. 2. 2008.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.03.2017-yildagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-2833-sonli qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.05.2023-yildagi "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-81-son farmoni.
7. Акимов Л.Ю. Взаимодействие прокуратуры с органами государственного контроля (надзора) при осуществлении надзора за исполнением законов в сфере электроэнергетики // Законы России: опыт, анализ, практика. 2009. № 9.
8. Капинус О. Прокурорский надзор за исполнением законов: состояние и перспективы развития // Законность. 2013. № 7.
9. URL:[https://library.samdu.uz/files/4026b61e5ed8385a2c7e8e8a4dcff5d6\\_mustaqilishlar%20Ekologiya%20huquqi%20\(M.Usmonov%20va%20b.\)pdf](https://library.samdu.uz/files/4026b61e5ed8385a2c7e8e8a4dcff5d6_mustaqilishlar%20Ekologiya%20huquqi%20(M.Usmonov%20va%20b.)pdf)
10. Настольная книга прокурора. Академия Генеральной прокуратуры Российской Федерации. М., 2012.
11. При Ленинградской межрайонной природоохранной прокуратуре



создан Общественный совет [Электронный ресурс] // Ленинградская межрайонная природоохранная прокуратура. Официальный сайт. URL: <http://lmpprok.ru/pri-leningradskoj-mezhrajonnoj-prirodooxrannoј-prokurature-sozdan-obshhestvennyj-sovet/>

**12.** В прокуратуре создан Общественный экологический совет [Электронный ресурс] // Прокуратура Новосибирской области. Официальный сайт. URL: [http://www.prokuratura-nso.ru/news/news\\_2735.html](http://www.prokuratura-nso.ru/news/news_2735.html)

**13.** Dilboboev, N. (2022). Issues for Enforcement of Decisions of the International Investment Arbitration on Interim Measures. Available at SSRN 4299453.

**14.** Shavkatugli, D. N. (2022). Conciliation as a Means of Adr Vs Arbitration and Mediation. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 6, 430-436.